

"Zakovat" intellektual bellashuvi

2020-yil 1-dekabr kuni "Yer resurslarini boshqari" fakulteti dekani Sh.Narbaev, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova hamda fakultet yetakchisi D.Jabborova va iqtidorli talabalar tashabbusi bilan 1-bosqich talaba-yoshlari o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, talaba-yoshlarning huquqiy ongi, savodxonligini yanada oshirish maqsadida, "Zakovat" intellektual bellashuvi o'tkazildi. Ushbu intellektual bellashuvi o'tkazishdan maqsad talaba-yoshlar orasidan har tomonlama yetuk, bilimli hamda mahoratli yoshlarni aniqlash, ularni har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib kamol topishiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, iqtidorlilarni aniqlash hamda kasbiy mahoratini va bilim darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, davlat ahamiyatiga molik turli innovatsiyalar, yangiliklar qilish maqsadida o'tkazildi. Tanlovda jami 4 nafar talabalardan iborat 7 ta jamoa bilimlar maydonida bellashdilar. Qizg'in kechgan bahslardagi natijalar quyidagicha: 1-o'rinni: 108-guruh talabalari; 2-o'rinni: 106-guruh talabalari; 3-o'rinni: 103-guruh talabalari nasib qildi. G'olib jamoalar fakulitet rahbariyati tomonidan taqdirlandi. Kelgusida shu kabi bilimlar bellashuvi yana davom etadi.



TIQXMMI matbuot xizmati